



BIRINCHI SHARQ RENNESANSINING BUYUK DAHOSI YOHUD IBN SINO HAYOTI VA IJODIGA BIR NAZAR

Abdullayev Jahongir Shuhrat o'g'li

O'zbekiston Xalqaro islom akademiyasi tarix (islom sivilizatsiyasi)
yo'nalishi 2-kurs magistranti

Telefon: +998940189502

Email address: ddavlatov000@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8016964>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 01-June 2023 yil

Ma'qullandi: 05-June 2023 yil

Nashr qilindi: 08-June 2023 yil

KEY WORDS

Abu Ali Ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Xorazm ma'mun akademiyasi, G'aznaviylar davlati, Mahmud G'aznaviy, "Tib qonunlari", "Kitob ash-shifo",

ABSTRACT

Ushbu maqolada Birinchi sharq renessansining buyuk vakillaridan biri, qomusiy olim Abu Ali Ibn Sinoning hayoti va ijodi haqida ma'lumot berilgan. Shuningdek, u qoldirgan boy mana'viy merosning bugungi kun dunyo jamiyatida va O'zbekistonda tutgan o'rni borasida atroflicha to'xtalib o'tilgan. Bundan tashqari, olim xotirasini abadiylashtirish, Beruniy shaxsiyatini o'rganish va kelajak avlodlarga yetkazish borasida amalga oshirilayotgan ishlar tasvirlangan

Insoniyat tarixida shunday davrlar bo'lganki, undagi ilm-fan va madaniyat taraqqiyotini ba'zi bir olimlar merosisiz tasavvur etish qiyin. Ana shunday fan darg'alaridan biri, birinchi Sharq renessansining yetuk vakili, tabib, faylasuf, shoir, mantiq va tarix ilmlarining bilimdoni Ibn Sinodir. U g'arbda Avitsena nomi bilan mashhur. Bu ism qadimgi yahudiy tilida Aven Sino deb yozilgan va uning biroz buzib talaffuz etilishidan "Avitsena"ga aylangan. Birinchi prezidentimiz I. Karimov bu buyuk siymo haqida shunday deydi: "Bu benazir allomaning butun ilmiy faoliyati dunyo taraqqiyotini insonparvarlik ruhida, ya'ni, ma'naviy negizda rivojlantirishga ulkan ta'sir o'tkazdi, deb aytishga barcha asoslar bor."

Abu Ali al-Husayn ibn Abdulloh ibn al-Hasan ibn Ali ibn Sino milodiy 980-yilning 16-avgustida (hijriy 370-yil, safar oyi) Buxoroning Afshona qishlog'ida tavallud topgan (Bu qishloq hozirda Buxoro viloyatining Romitan tumanida joylashgan). Ibn Sinoning otasi Abdulloh Balx shahridan bo'lib, Somoniylar amiri Nuh ibn Mansur (976—997) davrida Buxoroga ko'chib keladi va Xurmaysan qishlog'ida moliya amaldori etib tayinlandi.

Abdulloh Afshona qishlog'ida Sitora ismli qizga uylanadi va undan ikkita o'g'il farzand ko'radi. Ularning kattasi Husayn (Ibn Sino) va kichigi Mahmud edi. O'sha davr aslzodalari odatiga ko'ra, kishilar farzandlari va kunyalariga faxriy nom berishgan. Shu bois, "—Mening o'g'limning o'z o'g'li bo'ladi. Shunda u ism topishda aziyat chekmasin. Bo'lajak nabiram uchun men ism tanlab qo'ydim. Uning ismi Ali bo'ladi. Kunyasi Abu Ali bo'ladi", degan maqsadda olimning otasi Abdulloh o'g'liga Abu Ali kunyasini beradi. Biroq, bu niyat ro'yobga chiqmaydi. Chunki, Ibn Sinoning na o'g'li, na oilasi bo'ladi.

Ibn Sino besh yoshga to'lgach (986-yil), ular Buxoroga ko'chib keladi. Kuchli zehn va xotira egasi bo'lgan yosh Husayn poytaxtda besh yoshidan boshlang'ich ta'lim oladi va bu

jarayon 10 yil davom etadi. U o'n yoshga yetmasdanoq Qur'oni Karimni to'liq yod olib, hofiz darajasiga erishadi. Shundan so'ng u favqulodda zehn va iste'dod egasi sifatida ko'pchilikni lol qoldiradi.

U o'n uch yoshlarida boshlang'ich matematika, mantiq, fiqh, falsafa, kimyo, optika, musiqa kabi ilmlar bilan ham shug'ullana boshlaydi. Uning falsafa va matematikadagi dastlabki ustozlari Abu Abdullo Notiliy bo'lib, el orasida hakim va faylasuf sifatida mashhur edi. Shu bois, Ibn Sinoning otasi o'g'lini unga shogirdlikka beradi. O'z navbatida, yosh Husayn ustozidan mantiq, handasa va falakkiyot ilmini o'rganadi va ba'zi falsafiy masalalarda ustozidan ham ildamlab ketadi. Buni anglagan Notiliy shogirdining otasiga Husaynning faqat ilm bilan shug'ullanishiga ko'maklashishini tayinlaydi. Natijada, Abdulloh o'g'lining ilm olishi uchun barcha zarur sharoitni yaratib beradi. Tabobatdagi ilk ustozlari esa, buxorolik Hasan ibn Nuh al-Qumriy bo'lib (999-yil vafot etgan), undan bu ilmni har tomonlama o'rganish bilan birga, tabiblik bilan ham shug'ullana boshlaydi.

U 16—17 yoshlardayoq mashhur tabib -- hakim bo'lib tanildi. O'sha davrda hukmdor Nuh ibn Mansur qattiq betob bo'lib, saroy tabiblari uni davolay olmaydilar. Shunda Ibn Sinoni amirni davolash uchun saroyga taklif qiladilar. Uning muallajasidan keyin bemor tezda sog'ayib ketadi. Buning evaziga Ibn Sino Somoniylarning boy saroy kutubxonasi ("Sivanu-l-hikma") dan foydalanish imkoniga ega bo'ladi.

Olim aynan 16 yoshdan boshlab, barcha fanlar sohasida mustaqil mutolaa qila boshlaydi. Bu davrda u kunduzlari tinmay, kechalari uxlamay kitob o'qishga kirishadi.

Ibn Sino zaruriy bilimlarning katta qismini Buxoroda oldi. Olimning ilmiy ijodi ham shu yerda, 18 yoshida boshlandi. U somoniylar hukmdori Nuh ibn Mansurga atab nafsoniy quvvatlar haqida risola, "Urjuza" tibbiy she'riy asari, qo'shnisi va do'sti bo'lgan Abul-husayn al-Aruziyning iltimosiga binoan, ko'p fanlarni o'z ichiga olgan "Al-hikmat al-Aruziy" ("Aruziy hikmati") asarini ta'lif etdi. Yana bir do'sti Abu Bakr al-Barqiy (yoki Baraqiy) ning iltimosiga binoan, 20 jildli "Al-hosil val-mahsul" ("Yakun va natija") qomusiy asari hamda "Kitob al-birr val-ism" ("Sahovat va jinoyat kitobi") ni yozdi.

999-yil Buxoroni Qoraxoniylar zabt etgach, Somoniylar inqirozga uchradi va alloma hayotida notinch, og'ir damlar boshlandi. Bundan tashqari, 1002-yil Ibn Sinoning otasi vafot etdi. Shu bois, u o'sha davrdagi yana bir yuksak ilm-fan va madaniyat markazlaridan biri Xorazmga bordi va u 1005-yil Xorazm poytaxti Gurganj (Urganch)da hukmdor Ali ibn Ma'mun (997—1009) homiyligida 1004-yilda asos solingan "Majlis ul-ulamo" ya'ni, Ma'mun akademiyasiga kelib qo'shildi. Bu yerda u Abu Rayhon Beruniy(973—1048), Abu Nasr ibn Iroq(1034-yil vafot etgan), Abu Sahl Masihiy(1010-yil vafot etgan), Abul Hasan ibn Hammor(942—1030), Ibn Miskavayx kabi yetakchi olimlar bilan birga ijod qildi.

Urganchda yosh olimni "shifokorlar hokimi" sifatida ulug'lashgan. Bu yerda u asosan, matematika va astranomiya bilan shug'ullandi. Shuningdek, u Beruniy va shogirdi Baxmanyor bilan yozishmalar qildi. Bundan tashqari, Abu Sahl Masihiydan tibbiyotga oid bilim oldi. U Gurganjda Xorazmshoh vaziri Abul-Husayn as-Sahliy bilan do'stlashdi va unga atab "Risola al-Iksir" (Iksir haqida risola) asarini yozdi. Biroq, Gurganjdagi hayot olim uchun uzoq davom etmadi. Amudaryodan janubda, somoniylardan mustaqillikka erishib, tobora kuchayib borayotgan G'aznaviylar davlati hukmdori Mahmud G'aznaviy(997—1030) davrida Xorazmga bir necha bor yurish qilindi. Sulton Mahmud Ma'munga xat yo'llab, saroydagi olimlarning bir guruhini G'aznaga jo'natishni so'raydi. Biroq, Ibn Sino bu taklifni rad etib, Abu Sahl Masihiy

bilan birgalikda 1010-yil Urganchni yashirincha tark etadi va ular Jurjonga—Masihiyning vataniga yo'l oladilar. Afsuski, yo'lda Masihiy vafot etadi. Nihoyat, olim yo'lda Niso, Obivard, Tus kabi shaharlarda yashab, 1012-yil Jurjonga yetib keladi va 1014-yilgacha shu yerda yashab, ijod qiladi. U bu yerda hukmdor Qobus ibn Vashmgir saroyida tabiblik qildi va mashhur tib olimi Abu Ubayd Juzjoniy (1047-yil vafot etgan) bilan uchrashdi. U Ibn Sinoning ham do'sti, ham shogirdi edi. Shu bois, umrining oxirigacha, 25 yil davomida u bilan birga bo'ldi. Ibn Sino tarjimai holi, bir qator asarlarining ta'lifi va tartibga keltirilishida Juzjoniyning xizmatlari kattadir. Ibn Sino aynan shu shaharda o'zing shoh asari—"Tib qonunlari" ning dastlabki qismlarini yozdi. 1014-yil olim Rayga ko'chdi. Bu yerda u buvayxiylardan bo'lgan, savdoyi dardiga chalinib qolgan hukmdor Majduddavlani davoladi. Biroq, bu yerda ham Mahmud G'aznaviy hujumi xavfidan qochib, Hamadonga yo'l oldi.

Hamadonda o'sha davrda Majduddavlaning akasi Shamsuddavla (997—1021) hukmronlik qilardi. Olim bu yerda uni sanchiq dardidan davolagach, uni saroyga taklif qilishadi. Dastlab saroy tabibi, keyinroq vazirlik mansabiga ko'tarildi (1019—1021). Alloma bu shaharda "Tib qonunlari"ning qolgan qismini ham yozib tugalladi. Qolaversa, o'zining mashhur falsafiy asari—"Kitob-ash shifo"ni ham shu yerda yozishga kirishdi. Ushbu shaharda ham olimning hayoti to'la sokinlikda kechmadi. Ibn Sino hokim bilan kelisha olmay to'rt oy qamoqda ham yotib chiqdi. So'ng 1023-yil Isfahonga qochdi va butun hayotini ilm-ma'rifatga bag'ishladi. U umrining 14 yilini shu shaharda o'tkazdi. Uning 20 jildli "Kitob ul-insof", "Kitob un-najot", "Donishnoma" kabi mashhur asarlari, geometriya, astronomiya, o'simlikshunoslik, nabotot olami, mantiqqa oid risolalari, "Hay ibn Yaqzon" falsafiy qissasi shu yerda yozilgan. Bundan tashqari, alloma Isfaxonda rasadxona qurish ishlariga bosh bo'ldi. 1027—1032-yillarda u shu rasadxonada astronomik kuzatishlar olib borgan.

Hayotining so'ngi yillarida zodagonlar o'rtasidagi urushlar kuchayib ketganligi, ijtimoiy-siyosiy hayotda o'zi ham faol qatnashganligi tufayli u Ray, Hamadon va Isfaxon shaharlari orasida sarson-sargardonlikda yurdi. Allomaning yaqin do'sti va shogirdi Juzjoniyning yozishicha, Ibn Sino garchi jismoniy jihatdan baquvvat bo'lsa-da, biroq yurtmoyurt, shaharma-shahar darbadarlik, tinimsiz mehnat vabir qancha ta'qiblar va hatto hibsdan saqlanishi uning salomatligiga jiddiy ta'sir qiladi. U umrining oxirlarida (1034-yil) qulanj (ichak xastaligi)ga chalinadi va shu darddan 1037-yilning 18-iyunida (hijriy 428-yilning ramazon oyida) Isfaxonda 57 yoshda vafot etadi. (Ba'zi manbalarda Ibn Sinoning vafot etgan joyi sifatida Hamadon tilga olinadi). Uning qabri ustiga 1952-yil maqbara ishlangan (me'mori: X. Sayxun). Maqbara Ibn Sinoga bag'ishlangan muzey xonalarini ham o'z ichiga oladi.

Ko'plab manbalarda qayd etilishicha, Ibn Sino 450 dan ortiq asar yozganligi qayd etilgan. Biroq, bizgacha ularning 240 tasi yetib kelgan. Ularning 80 tasi falsafaga, 43 tasi tibbiyotga oid bo'lib, qolganlari mantiq, astronomiya, matematika, musiqa, kimyo, psixologiya, adabiyot va tilshunoslikka bag'ishlangan. Ammo, ularning ko'pchiligi hali to'liq o'rganilmagan.

Olim asarlarini o'rganishda ularni 4 qismga bo'lish maqsadga muvofiqdir. Bular: 1) falsafiy ilmlar; 2) tabiiy ilmlar; 3) adabiy ilmlar; 4) tibbiy sohaga oid ilmlar.

Allomaning tibbiyotga oid asarlari (43 ta) ning 30 dan ortig'i bizgacha yetib kelgan. Ular ichida "Kitob al-Qonun fit-tib" ("Tib qonunlari") shoh asar bo'lib, yaqin o'tmishga qadar Yevropa va ba'zi Sharq mamlakatlari tibbiyot oliygohlarida asosiy qo'llanma vazifasini o'tagan.

Alloma asarlarini shartli ravishda 4 guruhga ajratish mumkin: falsafiy, tabiiy, adabiy va

tibbiy sohalarga oid asarlar. Biroq, ularning aksariyati tib va falsafaga oid. Shu bois, uni G'arbda "Avitsena" sifatida mashhur qilgan tabobat ilmi bo'lsa, "Shayx ur-ra'is" sifatida tanitgan falsafa ilmi hisoblanadi.

Olimning falsafaga doir eng yirik asari "Kitob ash-shifo" bo'lib, 4 qismdan iborat: 1) mantiq (9 qism); 2) tabiiyot (4 qism); 3) riyoziyot (4 bo'lim); 4) metafizika yoki ilohiyot edi. Asarning ba'zi qismlari lotin, suriyoniy, ibroniy, nemis, ingliz, fransuz, rus, fors va o'zbek tillarida nashr etilgan.

Olimning yana bir falsafiy asari "Kitob an-najot" bo'lib, "Kitob ash-shifo"ning qisqartirilgan shaklidir. Bundan tashqari, uning "Ishoralar va tanbihlar", "Sharqchilar falsafasi", "Mantiq va falsafaning ishoralari", "Donishnoma" (fors tilida) kabi falsafiy asarlari ham ma'lum va mashhur. Shuningdek, uning "Tayr qissasi", "Salomon va Ibsol", "Hayy ibn Yaqzon", "Yusuf haqida qissa" kabi qissalarida falsafiy mazmun yetakchilik qiladi.

Ibn Sinoning aniq fanlar sohasidagi asarlari ham salmoqlidir. Quyida ularning ba'zilarini keltirib o'tamiz:

"Tahqiq mabadi al-handasa" ("Geometriya boshlang'ichlarini tadqiq qilish");

"Risola dar handasa" ("Geometriya haqida risola");

"Al-alat ar-rasadiya" ("Kuzatish asboblari").

Ibn Sino alkimyo sohasi bilan ham shug'ullangan. Uning "Risalat as-san'a ilal- Baraqiy" ("Al Baraqiyga san'at bo'yicha yozilgan risola") asari shu sohaga oid bo'lib, 12 bobdan iborat.

Ibn Sino nafaqat faylasuf, tabib va matematik, balki, mashhur shoir ham edi. U o'zining ayrim asarlarini rajaz vaznli she'rda yozgan. Shuningdek, uning bir necha falsafiy qissalari ham mavjud. Ular keyinchalik, ayniqsa fors-tojik adabiyotiga chuqur ta'sir ko'rsatgan.

Olim musiqa sohasida Forobiyning ilmiy yo'nalishini davom ettirgan yirik nazariyochidir. Musiqa haqidagi "Javome' ilm ul-musiqiy" (Musiqa ilmiga oid to'plam") asari "Kitob ash-shifo"ning bir qismi bo'lib, har biri bir necha bobli 6 bo'limdan iborat. Shuningdek, "Donishnoma", "An-najot" kabi kitoblarida ham musiqa ilmi borasida kichik bo'limlar mavjud. Yevropada keyinchalik sof tizma (tovushqator) deb atalgan musiqaviy tuzilmani birinchi bo'lib asoslagan. U o'zining barkamol shaxsni tarbiyalash g'oyasida musiqani asosiy vositalar sirasiga kiritgan.

Alloma o'z davrida ilmlar tasnifi masalasiga ham jiddiy yondoshgan va bu sohaga doir "Aqsom al-ulum al-aqliya" ("Aqliy ilmlar tasnifi") nomli asar yozgan.

O'z davrida va undan keyin ham Ibn Sinoning ayrim qarashlari, ayniqsa, falsafaga oid ta'limoti b'zi olimlar tomonidan tanqid ostiga olingan. Jumladan, Abu Homid G'azzoliy o'zining mashhur "Faylasuflarni rad qilish" asarida Ibn Sinoning ayrim fikrlarini tanqid ostiga olgan. Bundan tashqari, XII asrda yashagan Muhammad Shahrisoniy o'zining "Kitob al-musaraa" asarida hamda Faxruddin ar-Roziy o'z kitoblarida G'azzoliyni qo'llab-quvvatlagan. Shu bilan bir qatorda, XII asrda yashagan Ibn Rushd "Raddiyalarni rad etish" kitobini taqdim qildi. Bundan tashqari, Nasruddin at-Tusiy Ibn Sinoning ayrim qarashlarini himoya qilib chiqdi.

Zamondoshlari tomonidan Ibn Sinoning "Shayx ar-ra'is" ("Donishmandlar sardori, allomalar boshlig'i"), "Sharaf al-mulk" (o'lka, mamlakatlar obro'si, sharafi), "Hujjat al-haqq" ("Rostlikka dalil"), "Hakim al-vazir" (Donishmand, tadbirkor vazir) degan nomlar bilan e'tirof etilishi uning davlat va jamiyat hayotida qay darajada muhim o'rin tutganligining dalilidir. Olim asarlarining aksariyati arab tilida, ba'zi she'riy-falsafiy asarlari esa fors tilida yozilgan.

Shu bois, keyingi davrda Umar Xayyom, Abu Ubayd Juzjoniy, Nasriddin Tusiy, Fariduddin Attor, Ibn Rushd, Nizomiy Ganjaviy, Jaloliddin Rumiy, abdurahmon Jomiy, Ulug'bek, Bedil, Alisher Navoiy kabi sharq mutafakkirlari olim ta'limoti va u ilgari surgan g'oyalarni davom ettirdilar. Shuningdek, XII asrdan boshlab uning asarlari lotin tiliga tarjima qilinib, universitetlarda o'qitila boshlandi. Yevropaning Jordano Bruno, Gundisvalvo, Foma Akvinskiy, Rojer Bekon va Dante kabi faylasuflari o'z asarlarida Ibn Sino merosidan foydalandilar va uning nomini zo'r hurmat bilan esga oldilar. Natijada, nafaqat yurtimizda, balki jahonda ham olim ijodini o'rganish maqsadida maxsus ilmiy yo'nalish – sinoshunoslik vujudga keldi. Buning natijasi o'laroq, olimning shoh asari – “Tib qonunlari” ning lotincha tarjimasini shu kungacha 40 marta nashr etildi. Shuningdek, keying davrda “Qonun”ga ko'plab sharhlar yozildi. Quyida ulardan eng mashhurlarini keltirib o'tamiz: Faxriddin Roziy (XII asr); Muhammad Nahichivoniy, Ibn an-Nafis (XIII asr); Abdurrahmon Misriy (XIV asr); Hakim Shifoixon (XIX asr) va boshqalar. “Qonun”ning ayrim qismlari ingliz, nemis, fransuz va boshqa bir qator tillarga tarjima qilindi. Qolaversa, olim qalamiga mansub yana ko'plab asarlar bir necha tilda dunyo yuzini ko'rdi.

Bizga ma'lumki, jahon ilm-fani taraqqiyotida, ayniqsa, falsafiy ilm va dunyoqarash rivojida butun dunyo ahli yunon olimi Aristotel (Arastu)ni alohida hurmat bilan tilga oladi. Abu Nasr Forobiyning esa haqli ravishda “Muallim us-soniy” ya'ni “Ikkinchi muallim” sifatida bilishadi. Bu buyuk faylasuflar ilmiy merosini qunt bilan o'rgangan Ibn Sino esa ularga munosib davomchi sifatida e'tirof etiladi.

O'tgan asr o'rtalarida rus antropologi M.M Gerasimov boshchiligida, bir qator tarixiy shaxslar qatori, Ibn Sinoning ham kalla suyagi asosida haykalportreti yaratilgan. Shuningdek, Andijon tibbiyot instituti xodimlari (Y. U. Otabekov, SH. H. Hamidullin, E. S. Sokolova) Ibn Sinoning ilmiy asoslangan timsolini haykal-byustda tasvirladilar (1965). O'zbekistonlik rassom S. Marfin 1968-yil Ibn Sinoning badiiy portretini ishlagan.

Olim shaxsiyatini o'rganish va talqin etishda kino sohasida ham yurtimizda, ham xorijda birmuncha ishlar amalga oshirilgan. Xususan, 1956-yil Komil Yormatov rejissyorligida “Avitsenna”, 1982-yilda esa, “O'zbektelefilm” hamda “Tojikfilm” kinostudiyasi ijodkorlari (rejissyor E. Eshmuhamedov; O. Agishev va ssenariy muallifi E. Eshmuhamedov) tomonidan “Dahoning yoshligi” nomli tarixiy-biografik badiiy film yaratilgan. Bundan tashqari, Ibn Sinoning tug'ilganidan to vafotiga qadar hikoya qiluvchi “Avitsenna” (Bu—Ali Sina) teleseriali 1987-yilda suratga olingan. Xorijlik kinoijodkorlar tomonidan 2013-yil N. Gordonning “The Physician” kitobi asosida suratga olingan “Shifokor:Avitsennaning shogirdi” filmi ekranga chiqdi (rejissyor: Filipp Shtyols).

Alloma ilmiy-ijodiy faoliyatini badiiy uslubda yoritish borasida ham qator asarlar yaratildi. Jumladan, Odil Yoqubovning “Ko'hna dunyo” romanida G'aznaviylar davlatidagi ijtimoiy-iqtisodiy, ilmiy-madaniy muhit yoritilib, Ibn Sino va Beruniy kabi olimlar hayoti va ijodiy faoliyatiga keng o'rin berilgan. Tatar yozuvchisi Qayum Nosirning “Abugalisina” qissa-ertagida esa, Ibn Sino shaxsiyati sodda badiiy bo'yoqlarda tasvirlangan. Bundan tashqari, Noy Gordonning 1988-yilda yozilgan “The Physician” romanida Ibn Sinodan shifokorlik san'atini o'rganishni istagan yosh ingliz o'g'loni o'zini yahudiy deb tanishtirgani borasidagi hikoya mavjud. 2011-yilda ispan yozuvchisi Esekil Teodoro tomonidan nashrdan chiqarilgan “Avitsennaning qo'lyozmasi” romanida ham olim hayotining ayrim jihatlari tasvirlangan.

Alloma hayoti va ijodini o'rganishda ham katta ishlar amalga oshirildi. Xususan, Ibn

Sinoning shoh asari “Al-qonun fi-t-tib”ning to‘liq kompleksi arabchadan o‘zbek va rus tillariga o‘g‘irilib, 1954—61-yillar davomida nashr etildi.

“Qonun”ning o‘zbekcha tarjimasining ikkinchi nashri H. Hikmatullayev(1929—1994) tomonidan tayyorlandi. Ruscha va o‘zbekcha umumiy va qiyosiy filologik tahrir Ubaydulla Karimov tomonidan amalga oshirildi. Bu nashr 1979—1983-yillarda to‘liq holda chop etildi. Keyinchalik, shu nashr asosida o‘zbek va rus tillarida yana 6 bor bosmadan chiqdi.

Olim shaxsiyatiga hurmat-ehtiromni yana bir qator omillar bilan izohlash mumkin. Buxoro shahri va Afshona qishlog‘ida unga atab haykal o‘rnatildi. Shuningdek, Afshonada Ibn Sino muzeyi ochildi. 1956-yil O‘zbekistonda topilgan yangi mineral Ibn Sino nomi bilan Avtsenit deb ataldi. Bundan tashqari, O‘zbekiston va Tojikistondagi bir qator oliy va o‘rta-maxsus o‘quv yurtlari, sanatoriya, kutubxona, shifoxona, ko‘cha va turar joy mavzellariga uning nomi berilgan. 1999-yilda O‘zbekistonda Ibn Sino xalqaro jamg‘armasi tuzildi. “Ibn Sino” va “Sino” nomli xalqaro jurnallar nashr qilinmoqda.

Bugungi kunda, yangi qurilayotgan Islom sivilizatsiyasi markazida alloma hayoti va ilmiy me‘rosini o‘rganishga doir alohida bo‘lim ochilishi rejalashtirilayapti. Shuningdek, bu markazda qator yirik loyihalar amalga oshirilishi borasida alohida dasturlar ishlab chiqilmoqda.

Olimning xotirasini abadiylashtirish borasida dunyo miqyosida ham qator ishlar amalga oshirilgan. Jumladan, o‘simliklarning birinchi ilmiy tasnifini yaratgan mashhur shved botanigi Karl Linney (1707—1778) doimo yashillikda turuvchi bir daraxtni Ibn Sino nomiga Avitsennit deb nomladi. Bundan tashqari, Belgiyaning Kortreyk shahrida Ibn Sinoga haykal qo‘yildi (2000). Dushanbeda uning sharafiga qurilgan yangi maydonga (unda ozarbayjonlik haykaltarosh Umar Eldorov yasagan olim haykali o‘rnatilgan), oldin Lenin tog‘i deb nomlangan cho‘qqiga hamda Tojikiston meditsina institutiga uning nomi berilgan.

2009-yil iyun oyida Venadagi xalqaro Memorial maydonda Eron hukumati tomonidan tortiq etilgan paviliondagi to‘rt buyuk olim haykalining biri Ibn Sinoga tegishlidir. Shuningdek, Rigadagi Gaylezers kasalxonasi majmuasi parkida alloma haykali o‘rnatilgan (haykaltarosh J. Mirtojiev ishi).

Sovet astronomi Lyudmila Ivanova Chernix tomonidan 1973-yil 26-sentabrda ochilgan asteroidga “Avitsenna” deb, nom berilgan. Qolaversa, oydagi vulqonlardan biri ham uning nomiga atab qo‘yilgan. Bundan tashqari, kardiogrammalar va ko‘krak bezlarining rentgen suratini avtomatik o‘rganish uchun IBM tomonidan yaratilgan dastur “Avitsenna dasturi” nomini olgan.

Olim ilmiy merosini o‘rganish borasida ham ko‘plab ijobiy ishlar amalga oshirilmoqda. Masalan, 1991-yil L. Jansens tomonidan “An annotated bibliography on Ibn Sina” nomli kitob nashr etildi. 1999-yil esa, ushbu kitob qayta bosmadan chiqdi.

Alloma fanning deyarli barcha sohalarida barakali ijod qilgan. Ular orasida, ayniqsa, tibbiyotga oid nazariyalar va kashfiyotlar bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan. Quyida ularning ba‘zilarini keltirib o‘tamiz:

- Olim o‘zigacha yashagan va o‘ziga zamondosh bo‘lgan olimlarning tibbiyotga oid asarlarini sinchiklab o‘rgandi va tizimlashtirilgan tibbiyot nazariyasini yaratdi;

- Ibn Sinoning asablar, qon tomirlar, mushaklarning tuzilishi va funksiyalari to‘g‘risida yozganlari anatomiyaning amaliyot bilan bog‘liqligini ko‘rsatadi. Bu esa, amaliy anatomiyaning asoschisi deb tan olingan rus olimi N. I. Piragovni Ibn Sinoning izdoshi

deyishga asos bo'ladi;

– Olimning perkussiya (a'zoga urish orqali diagnoz qo'yish) usuli Ibn Sinodan 600 yil keyin venalik tabib Leopard Auenburger tomonidan qayta kashf qilinib, yana 50 yildan so'ng amaliyotga kirgan;

– Alloma diabet (qand) kasalligini siydikka qarab aniqlashni birinchi bo'lib kashf qilgan. Bu usul 1775-yildagina ingliz olimi Dobson tomonidan aniqlangan;

– Tarixda birinchi bo'lib aynan u vabo bilan o'latni farqlagan, yuqumli kasalliklar bilan og'rigan bemorlarni boshqalardan ajragan holda davolash kerakligini isbotlagan. (Yaqin o'tmishda Covid—19 bilan kasallanganlarni karantinga olish choralarning qanchalik samarali ekanligiga guvoh bo'ldik);

– Olim quturish kasalligining ko'rinishlari, uning yuqumli xarakteri, bemorning bu kasallikdagi holatlarini juda to'g'ri aniqlagan. 1804-yildagina yevropalik olim Sanke quturgan hayvonlarning so'lagi yuqumli ekanligini tasdiqlagan;

– Ibn Sinoning bir kasallikni boshqa bir kasallikni chaqirish yo'li bilan davolash usuli diqqatga sazovordir. Masalan, u tutqanoqni davolashda to'rt kunlik isitma bilan og'rishni foydali deb biladi. (Avstryalik psixatr Y. Vagner Yaureg (1857—1940) shunday usulni qo'llab, zaxm kasalligini bezgakni yuqtirish orqali davolagani uchun 1927-yilda Nobel mukofotiga sazovor bo'lgan.);

– Ibn Sinoning yiringli shishlarni kuydirish yoki pichoq bilan yorish, bavo-sir shishlarni tikish, tampon, o'tkir modda yoki tikish bilan qon to'xtatish, yelka suyagining chiqishini oddiy bosish bilan davolash usuli ("Avitsenna usuli") bugun ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan. U umurtqaning qiyshayishini o'zi ixtiro qilgan yog'och moslama yordamida tuzatgan. Bu usulni XV asrga kelibgina fransuz tabibi Kalo kashf etgan;

– Suyaklarni gipslash usuli ham birinchi bo'lib Ibn Sino tomonidan keng qo'llanilgan. Biroq, keyinchalik unutilib, Yevropalik tabiblar tomonidan 1952-yilda amaliyotga yangi ixtiro sifatida kiritilgan;

– Hozirgi ko'z jarrohligida qo'llanilayotgan usullarning deyarli barchasi olimga ma'lum bo'lgan;

– yomon sifatli saraton (rak) shishlari, qovuq toshlarini olish, bosh suyak operatsiyasi ham Ibn Sino tomonidan qo'llanilgan muolajaa usullaridan hisoblanadi;

– Jarrohlikda qo'llaniladigan anesteziya (og'riq sezdirmaslik) masalasiga ham olim jiddiy e'tibor bergan. Shu maqsadda u afyun, nasha va mingdevona kabi narkotik ta'sirga ega bo'lgan dorilardan foydalangan.

– Olim kasallikni davolashda shaxsiy gigiyena, uyqu va jismoniy mashqlarning ahamiyati juda katta ekanligini ta'kidlagan.

– Ibn Sino farmatsevtika (dorishunoslik) sohasida ham muhim izlanishlar olib bogan. U antik farmatsevtika asosida musulmon Sharqida o'ziga xos farmatsiyaning shakllanishiga yakun yasagan.

Xulosa

Xulosa sifatida shuni aytish kerakki, olim yashagan davr Arab xalifaligi anchayin zaiflashgan va buning natijasida uning turli hududlarida qator mustaqil davlatlar vujudga kelgan, ular o'rtasida o'zaro kurash avj olgan yillar edi. Bundan tashqari, ayni shu paytda turli aqidaviy firqalar soni ko'paygan va ular va ahli sunna vakillari o'rtasida ham o'ziga xos kurash kechgan davr edi. Shuningdek, bu davrda ilm-fan, madaniyat va san'at gurkirab

rivojlangan va mintaqaning turli hududlarida turli ilmiy markazlar paydo bo'lgan edi.

Shu zamonda Abu Ali Ibn Sino kabi zabardast ilm fidoiysi o'zining boy ilmiy merosi bilan tom ma'nodagi Birinchi Sharq renesansi taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shdi.

Ibn Sino hayoti va ilmiy-ijodiy faoliyatini o'rganish u tirikligi davridayoq boshlangan. Shu bois, uning musulmon Sharqi madaniyati rivojiga katta ta'sir ko'rsatgan asarlari va olim hayoti borasida Bayhaqiy, Juzjoniy, Qiftiy, Yoqut Hamaviy kabi olimga zamondosh tarixchilar tomonidan qimmatli ma'lumotlar keltirib o'tiladi. Bundan tashqari, Tabriziy, Suyutiy, Qazviniy, Tusiy, Muhammad ibn Mansur al-Allomiy, Al-Xurosoniy kabi tarixchilar asarlarida ham u haqida ko'plab tavsiflar keltiriladi.

XIX asrdan boshlab dunyo miqyosida Ibn Sino ilmiy-ijodiy faoliyati bilan qiziqish yanada keng tus oldi. Uning ilmiy merosini lotin, franso'z, rus, ingliz, nemis, italyan, fors va turk tillariga tarjima qilish ko'paydi. Bugungi kunda E. Bishman, K. Hernandez, J. Saliba kabi Yevropa olimlari, M. U. Najotiy, S. Nafisiy, E. Ehsono'g'li kabi turk-eron sinoshunoslari mutaffakkir ijodini o'rganishga munosib hissa qo'shdilar. Shuningdek, rossiyalik olimlardan E. Bertels, A. Petrov, M. Rojanskaya hamda tojikistonlik T. Mardonov, M. Dinorshayev kabilar ham bu soha rivojiga xizmat qildilar.

O'zbekistonda ham alloma merosini o'rganish borasida o'ziga xos maktab yaratilgan. S. Mirzayev, A. Murodov, A. Rasulov, A.A. Semyonov, P.G. Bulgakov, Sh. Shoislomov, H. Hikmatullayev kabilar ushbu sohada kata ishlarni amalga oshirdilar. Shuningdek, Q. Niyoziy, I. Mo'minov, M. M. Xayrullayev, M. N. Boltayev, A. Ahmedov, G.P. Mativieskaya, B. K. Jumayev, N. Majidov, O. F. Fayzullayev, M.B. Baratov kabi olimlarning monografiya va maqolalarida Ibn Sino hayoti va ijodining ko'plab qirralari tadqiq etilgan.

Yurtimizda ham olim ijodini o'rganish, tahlil va talqin etishga jiddiy e'tibor berilmoqda. H. M. Abdullayev, I. M. Mo'minov, V. Y. Zohidov, Y. G'. G'ulomov, U. Karimov, P. G. Bulgakov kabi olimlar Beruniy faoliyatiga doir qator risola va asarlar yaratdilar, ko'plab maqolalar e'lon qildilar.

Bugungi kunda olim hayoti va ilmiy-ijodiy faoliyatini o'rganish borasidagi sa'y-harakatlar yangi bosqichga ko'tarilgan. Buning isboti sifatida, dunyoning turli mamlakatlarida Ibn Sino xotirasini abadiylashtirish maqsadida o'rnatilgan haykallarni, olim haqida nashr etilgan turli monografiya, maqolalar va tezislarni misol qilib keltirish mumkin. Bundan tashqari, Sovet astronomi Lyudmila Ivanova Chernix tomonidan 1973-yil 26-sentabrda ochilgan asteroidga "Avitsenna" deb, nom berilganligi, oydagi vulqonlardan biri ham uning nomiga atab qo'yilganligi, kardiogrammlar va ko'krak bezlarining rentgen suratini avtomatik o'rganish uchun IBM tomonidan yaratilgan dastur "Avitsenna dasturi" deb, nomlanishi, bejiz emas, albatta.

Olim hayoti va ilmiy-ijodiy faoliyatini yanada chuqurroq o'rganish, tahlil va talqin etish, kelajak avlodlarga yetkazish, uning xotirasini abadiylashtirish borasida muhim ishlar amalga oshirilmoqda. Ibn Sino shaxsiyatiga qiziqish, uni tanish va tanitish yangi bosqichga ko'tarilmoqda. Buni quyida keltirib o'tilgan misollarning barchasi tasdiqlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ziyodinov M., Jonijonov M. O'rta asr sharq allomalari va mutafakkirlarining tarixiy me'rosi, ularning zamonaviy sivilizatsiya rivojidagi roli va ahamiyati // Xalq so'zi. 2014-yil, 16-may. – 4 b.
2. Aminov M., Hasanov F. Buyuk ajdodlarimiz. – Toshkent, "O'zbekiston milliy

- ensiklopediyasi". 2011. – 365 b.
3. Shamsutdinov R., Karimov Sh. Vatan tarixi. – Toshkent: Sharq, 2010. – B.230.
 4. Hasanov F. Ma'naviyat yulduzlari. – Toshkent, O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2011. – B.101—102.
 5. Irisov A. Ibn Sino – ma'rifatparvar adib. –T: Fan, 1962. – B.33–34.
 6. Abu Ali Ibn Sino. Arboblar.uz.
 7. Хайруллаев М.М. Маънавият юлдузлари. – Тошкент: А. Қодирий, 1999. – Б.86.
 8. Абу Али Ибн Сино. Тиб қонунлари – Тошкент: “Муҳаррир” нашриёти, 2013. – Б.15.
 9. Абдуҳалимов Б.А. Хоразм Маъмур академияси. –Тошкент, “Фан” нашриёти. – 275 б.
 10. Муҳаммадаминов С.А., Зинатуллаев З.И. Марказий Осиё мутафаккирлари илмий мероси. – Тошкент, “Fan ziyosi”, 2021. – 128.
 11. Уватов У. Ўзбекистон – буюк алломалар юрти. –Тошкент: “Маънавият”, 2010. – 210 б.
 12. Шайх Муҳаммад Содиқ Муҳаммад Юсуф. Ислом тарихи/ II китоб. –Тошкент: “Hilol nashr” нашриёти, 2018. – 543 б.
 13. Воҳидов Ш., Қодиров А. Шарқнинг машхур сулолалари. – Тошкент: “Академнашр” нашриёти, 2003. – 321 б.
 14. Маънавият Юлдузлари: (Марказий Осиёлик машхур сиймоалр, алломалар, адиблар)//Масъул муҳаррир: М.М. Хайруллаев/. – Тўлдирилган қайта нашри. – Т.: Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 1999. – 400 б.
 15. Зиёдов Ш., Муҳаммадиев О. Ўрта аср шарқ алломалари ва мутафаккирлари энсклопедияси. – Самарқанд: Имом Бухорий халқаро маркази нашриёти. – 692 б.
 16. Уватов У. Ўзбекистон – буюк алломалар юрти. – Тошкент: Маънавият, 2010. – 397 б.
 - Ганковский Ю. В. История Афганистана. – Москва, издательство “Мысл”, 1892. – 367 с.
 17. Босворт К.Э. Мусульманские династии. Справочник по хронологии и генеалогии. Пер. с англ. П.А.Грязневича. – М: Главная редакция восточной литературы издательства «Наука», 1971. – 324 с.
 18. Жданова А. А. История стран зарубежной Азии в средние века. – Москва: издательство “Наука”, 1970. – 638 с.
 19. Dr. Eduard Sachau. The chronology of Ansient Nations (translated and edited by Dr. Eduard Sachau). – London. 1879.
 20. L. Jansens. An annotated bibliography on Ibn Sina. – Leuven: University press, 1999. P. 24-25 218